



**PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ
VA ZO'RAVONLIK LARNI OLDINI OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL
ETISHNING TASHKILIY ASOSLARI**

O'raqov Jasur Rustamalievich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Hasanov Jololiddin Kamoliddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 317 gurux kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada, tazyiq va zo'ravonliklarning yuzaga kelish shakllari, ularning kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari hamda ularga qarshi kurashishda profilaktika (katta) inspektorlarining xizmatlari tavsiflangan.

Tayanch so'zlar: tazyiq va zo'ravonlik, ta'qib etish, jismoniy va ruxiy zo'rslash, himoya orderi, "respect woman", himoyalash, reabilitatsiya qilish.

Jinoyat sodir etgan shaxslarga umumiyligi ta'rif berish va ularni statistik darajada o'rganish shaxslarning ma'lum turkumlariga xos bo'lgan xususiyatlarini aniqlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish va jinoyatchilikning oldini olish uchun tegishli choralar ko'rish imkonini beradi.

Huquqbuzar shaxsining ijtimoiy xavfli va aybli qilmishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni kriminologiya fani tadqiq etadi. Zero, jinoyat sodir etgan shaxslarni ilmiy jihatdan o'rganish o'zining mazmun va mohiyatiga ega bo'lib, mazkur ma'lumotlarni o'rganish asosida ushbu turdagagi huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish borasida profilaktik choralar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida o'rganilganida, huquqbuzarning shaxsi va uning xususiyatlari ham o'rganiladi. Modomiki, oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etgan va ularni sodir etuvchi shaxslarning ijtimoiy-xavfliqilmishlari, kriminologik belgilari, psixologik xususiyatlari, g'ayriaxloqiy qarashlarini tadqiq etish orqali ularga xos bo'lgan barcha zarur ma'lumotlarni o'rganish mumkin.

Oilada zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslar bilan bog'liq muammolar kriminologiya, psixologiya va jinoyat huquqi fanida ham g'oyatda bahsli bo'lib, hanuzgacha unga yagona yondashuvning yo'qligi tufayli turli soxa mutaxassislarini tomonidan huquqbuzar shaxsga nisbatan turlicha fikrlar bildirilgan. Zero, oilada zo'ravonlik bilan bog'liq muammolar, har bir millat mentaliteti, o'sha jamiyatda ustuvor bo'lgan oilaviy qadriyatlar, urfodatlar va marosimlar doirasida turli tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan.

Tadqiqot jarayonida oilada zo'ravonlik oqibatida jinoyatlar sodir etgan shaxslar haqidagi sud arxivi materiallarini o'rganish shuni ko'rsatmoqdaki, huquqbuzar shaxslar tomonidan 54,3% holatda qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish, 9,1% qasddan odam o'ldirish, 12,5% voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, 6,1% jinsiy ehtiyojni zo'rlik ishlatib g'ayritabiyy usulda qondirish, 5,4% tuhmat, 4,7% qiyash, 2,1% nomusga tegish, 1,0% xavf ostida qoldirish, 3,2% haqorat qilish, 1,6% o'zini o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish jinoyatlari sodir etilgan. Umuman olganda, oilalarga



sirtdan qaraganda hamma narsa maromida va binoyidek bo'lib tuyuladi, ammo aynan oilada yuqoridagi jinoyatlarning sodir etilishi jamiyat uchun falokatli holdir.

Huquqbuzar shaxsini tavsiflovchi eng muhim kriminologik belgilardan biri uning yoshidir. Shaxsning yosh xususiyatlari uning muhit bilan o'zaro aloqasiga, ma'naviy olamning ichki mohiyatiga, hulq-atvoridagi yaqqol ifodalangan ilkilanishlar va beqarorlikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatchi shaxsining kriminologik tahlilida yoshga oid tavsif bilan bir qatorda uning ma'lumot darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning ma'lumot darajasi uning talab, ehtiyoj va manfaatlarini, ma'naviy-axloqiy va madaniy ko'rinishlarini shakllantiradi.

Huquqbuzar shaxslarning ma'lumot darajasi o'rganilganida, ularning 5%ining – ma'lumoti oliy, 26% o'rta maxsus, 66% – o'rta ma'lumotli, 3% esa to'liqsiz o'rta ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar tashkil etdi. Ushbu toifadagi shaxslarning jinsga oid ma'lumotlari tahlil qilinganida, oilada zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklarni sodir etuvchilar asosan erkaklar bo'lib, ularning hissasi 82%ni tashkil etadi.

Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, huquqbuzar shaxslarning eng ko'p qismini 66% – o'rta ma'lumotga ega bo'lgan, 64,8%ni ishsizlar, eng ko'p huquqbuzarlik sodir etuvchilarni 38,6%ni 30-35 yoshgacha bo'lgan shaxslarni hamda ushbu huquqbuzarliklarning 82% erkaklar tomonidan sodir etilishini kuzatish mumkin.

Oilada jinslarning ruhiy-fiziologik xususiyatlari va ularning jamiyatda o'ynagan roli, ayollar xarakterining yumshoqligi, ularning chidamliligi va sabr-bardoshliligi hayotdan mahrum qilish yoki badanga shikast yetkazish bilan bog'liq holda g'arazli niyatini amalgaloshirish uchun ayollarning jismoniy imkoniyatlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Qaysidir ma'noda, bunday holat an'anaviy tarbiya oqibati bo'lib, erkaklarning agressiv hulq-atvori muammolarni hal qilishning yagona va samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil qilinganida, oila turmush munosabatlari doirasida sodir etilgan qotillikning 3-4% ni, qasddan badanga turli darajada shikast yetkazish jinoyatlarining 7-8% ayollar tomonidan sodir etilganligini kuzatish mumkin. Ayrim tadqiqotlarda qayd etilganidek, maishiy jinoyatlar tarkibida odam o'ldirish jinoyatini sodir etgan ayollarning ulushi boshqa jinoyatlarga nisbatan qariyb ikki barobar ko'pdir3.

Huquqbuzar shaxslarga xos bo'lgan yana bir jihat shundaki, ularning ma'naviy va intellektual darajasi yuqori bo'lмаган, ijtimoiy foydali mehnat bilan shug'ullanmaydigan, hulq-atvori agressiv hamda kriminogenlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Ushbu toifadagi shaxslar barcha jinoyat etgan shaxslarning 1/3 qismini tashkil etadi. Shuningdek, shaxsning oilaviy ahvoli, moddiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi, turar joyi va h.k. ham kriminologik ahamiyatga egadir.

Oilada sodir etilgan zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar tarkibida qotillik va badanga shikast yetkazishlarning 50%ini aynan ushbu toifadagi shaxslar sodir etishini tadqiqotlarimiz ham yaqqol ko'rsatmoqda.

Bir qator tadqiqotlarda jinoyat sodir etgan shaxslarning bilimi va ma'lumot darajasi yuqori bo'lмаган shaxslar ekanligi qayd etilgan.

Shaxs ma'lumot darajasining pastligi, axloqsizligi, hulq-atvorining salbiyligi ko'p hollarda huquqbuzar shaxsni g'ayriijtimoiy ishlardan o'zini tiya olmaslikka olib keladi.



Bunday shaxslar oqibatda o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirish uchun shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlarni o'yamasdan, osongina sodir etadilar.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bunday toifadagi shaxslarda rahmshafqat rishtalarining yo'qligi, insonga nisbatan rahmsiz munosabatda bo'lishga hamda shaxsga nisbatan turli darajada tan jarohati yetkazishga sabab bo'lishi mumkin. Achinarli tomoni shundaki, bunday toifadagi shaxslar tomonidan vaxshiylik bilan qotillik jinoyatlarini sodir etish holatlari amaliyotda ko'p uchraydi. Biroq, ushbu qilmishni sodir etgan shaxsda ma'lumot darajasining pastligi, ongning yetarli darajada rivojlanmaganligi, sodir etayotgan hatti-harakatining oqibatini anglab yetaolmasligi uning jinoiy xatti-harakatni sodir etishga olib kelgan, deb izohlash mumkin.

Tahlillarning ko'rsatishicha, huquqbuzar shaxslarning ko'pchiligi spirtli ichimliklarni yoshligidan iste'mol qilishni o'rgangan hamda uning ta'sirida turli huquqbuzarliklar sodir etishgan. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, hayotda ham aynan ushbu toifadagi shaxslarda jinoyat sodir etishga moyillik yuqori bo'lib, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar tarkibida shaxsning hayoti va sog'lig'iga qarshi turli darajadagi tan jarohati yetkazish holatlari ko'p uchraydi.

Tabiiyki, ijtimoiy muhitning jinoiy xulqqa ta'siri murakkab xususiyat bo'lib, o'rganilayotgan muammo bo'yicha aniq ma'lumot olish imkonini beradi. Qizig'i shundaki, « hech kim onadan jinoyatchi bo'lib tug'ulmaydi. Jinoyatchilik noma'qbul ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviyaxloqiy muhitdagana ildiz otishi mumkin ».

Jinoyatchi shaxs va uning shakllanish sabablarini samarali o'rganish jinoiy hulq-atvor motivlarini tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki, motiv shaxs va uning xususiyatlari, mayllari va qiziqishlari bilan uzviy bog'liqdir.

Oiladagi nizo va kelishmovchiliklar oqibatida xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar sodir etuvchi shaxslarning xulq-atvorida g'arazgo'ylik kabi xususiyatlar mayjud bo'lib, ularda milliy, oila, inson qadriyatlarini, xususan o'zining yaqinlari huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini mensimaslik, insonlar bilan muomalada qo'pollik, salbiy hulq va boshqa nuqsonlar mavjudligi kuzatilmoqda.

Huquqbuzar shaxslarni xususiyatlariga qarab tegishliligi bo'yicha kriminologik toifalarga ajratib o'rganish lozim. Zero, huquqbuzar, xususan oila tur mush sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning ichki dunyosi (ruhiyati)ga kirish orqali ularning fe'l-atvori, ijtimoiy psixologik xususiyatlari, xarakteri va tabiatini o'rganish ularning jinoyat sodir etishining sababini aniqlash imkonini beradi.

Maishiy sohada zo'rlik ishlatib jinoyat sodir etgan shaxslarning qariyb uchdan ikki qismi jinoyat sodir etish vaqtida alkogoldan, ikki foizga yaqini esa giyohvandlik vositalari ta'sirida bo'lganligi qayd etilgan. Bunday zo'ravonlik jinoyatlari ko'pchilik hollarda madaniy bilim darajasi past bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi.

Spirtli ichimlik shaxsning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyalar sodir etilishini taqozo etuvchi kriminogen omil hisoblanadi. Shu boisdan, oilada zo'ravonlik sodir etgan shaxslar kriminogen xususiyatga ega bo'lishadi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar ko'p hollarda spirtli ichimliklarni meyoridan ortiq iste'mol qilishi natijasida og'ir turdag'i qilmishlarni



ham sodir etishadi. Sodir etilgan qasddan odam o'ldirishning 36%, qasddan badanga shikast yetkazishning 43%, nomusga tegishning 12%, bezorilikning 51% bevosita mastlik natijasida sodir etilgan.

Yana bir tadqiqotda maishiy turmush sohasida sodir etilgan jinoyatlarning 90 foizida erkakning spirtli ichimlikni deyarli har kuni iste'mol qilishining sabab bo'lishi qayd etilgan.

Shaxsning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi oqibatida asab tizimining tormozlanishi, o'zini boshqara olmaslik, qilayotgan hattiharakatining oqibatini anglab yetmaslik, ayniqsa, shaxsning hulq-atvorida emotsional ruhiy holatlarining salbiy tomonga o'zgarishi kuzatiladi. Umuman olganda, shaxsning mastligi natijasida o'z harakatlarini nazorat qilolmaslik, qo'pollik, agressivlik kuzatiladi. Buning natijasida mast kishining ongida jamiyatda o'rnatilgan ahloq-odob normalariga befarqlik va hurmatsizlik bilan qarash paydo bo'ladi. Bu esa, jamiyatga zid bo'lgan turli g'ayri-ijtimoiy salbiy xususiyatlarni shakllantirib shaxsning jinoyat sodir etishiga olib keladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik etuvchi shaxslarning hulq-atvori, xususiyati, qo'polligularning ijtimoiy-ruhiy xususiyatida bo'lib turadigan o'zgarishlar huquqbuzarning psixologiyasiga xos bo'lgan xususiyat hisoblanadi. Shunday toifadagi shaxslar tomonidan oila turmush doirasida shaxsga qarshi qaratilgan turli ko'rinishdagi jinoyatlarni sodir etilishi ehtimoli ham ancha yuqoridir.

Tabiiyki, shaxsning hulq-atvoridagi ta'sirchanlik, his-hayajonga tez berilish, jizzakilik, qo'pollik, o'zini idora qila olmaslik, o'zining xattiharakati oqibatini o'ylamaslik ko'pincha huquqbazarliksodir etgan shaxsning psixologiyasiga xos xususiyat hisoblanadi. Bunday shaxslar, odatda jabrlanuvchining biron-bir ne'matga egalik qilishiga, shaxsga xavf solishga, o'zining manfaatini boshqalarning manfaatidan ustun qo'yishga, jabrlanuvchining muayyan harakatlari uchun zo'ravonlik bilan javob qaytarishga harakat qiladilar.

Huquqbuzar shaxslarning xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikni muayyan hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq holda sodir etishini, shubhasiz ular o'ziga xos ruhiy xususiyatlarga egadeb, xulosa qilish mumkin.

Kriminologik adabiyotlarda bunday toifadagi jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni: a) izchil jinoiylashib boruvchilar; b) vaziyatlar bilan bog'liq hollarda jinoyat sodir etuvchilar; v) vaziyatlarga qaram bo'lgan holda jinoyat sodir etuvchilarga ajratgan holda tadqiq etishadi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning o'ziga xos ruhiy xususiyatlari turmushdagi ba'zi noma'qbul vaziyatlar ta'sirida shakllanadi va muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo'ladi. Bunday toifaga kiruvchi shaxslar oilaviy hayotda muammoli yoki nizoli vaziyatlar vujudga kelgan paytlarda huquqbazarlik sodir etish orqali o'z muammosini yechishga harakat qiladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo'lganlari qatoriga voyaga yetmaganlarni g'ayriijtimoiy hatti-harakatlarga jalg qiluvchi toifalarini kiritish mumkin.

Ta'kidlash kerakki, oiladagi xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etuvchi shaxslar odatda serjahl, jizzaki va asabga teguvchi so'zlarni ko'p takrorlaydigan bo'lishadi. Shaxsning kriminogenlik darajasi uning jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori



ekanligidan dalolat beradi. Bunday hulq-atvorli shaxslar o'zining yaqin kishilariga nisbatan nomusga tegish jinoyatlarini ham sodir etishadi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning ma'naviy-ruhiy xususiyatlari, xulq-atvori tajovuzkorlik xususiyatga ega ekanligi bir qator tabiiy va ijtimoiy fan vakillari tomonidan atroflicha o'rganilgan.

Shaxsning ichki mayli (rashk, qasos, alam, oilada erkak yoki ayolning birbiriga ustunlik da'vosi va h.k.) oiladazo'ravonlikning yoki jinoiy hattiharakatlarni sodir etilishiga sabab bo'ladi. Bu obyektiv omillar shaxsda bevosita ma'naviysalbiy xususiyatlarni shakllantirmasada, lekin shaxs salbiy ma'naviy shakllanishi uchun qulay sharoitlar bo'lib hisoblanadi. Bunday salbiy xususiyatlar esa, shaxsda tajovuzkorlikning shakllanishiga olib keladi. Tajovuzkorlik deganda, o'z muammolarini hal etish uchun zo'ravonlik vositalaridan foydalanishni afzal ko'rish, nizolarni tajovuz yo'li bilan hal etish orqali jinoyat sodir etish tushuniladi.

Xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar tajovuzkor hulq-atvori bilan o'zining muammosini jinoiy yo'l bilan hal etishgaharaka qilishadi.

Oiladagi hayot tarzi shaxsning jinoiy hulq motivatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. U tashqi ijtimoiy va boshqa omillardan tashkil topib, jinoyat sodir etuvchi shaxsning shaxsiy xususiyatlariga ta'sir ko'rsatib uning jinoyat sodir etishini belgilab beradi.

Zo'rlik ishlatib sodir etiladigan jinoyatlarning motivining barchasi qasdga borib taqaladi. Ammo, ushbu motiv ko'p hollarda boshqa motivlar, xususan qasos, rashk, hasad, jabrlanuvchini qo'rqitish, aybdor qo'ygan talablarning jabrlanuvchi tomonidan bajarilishiga erishish kabilar bilan uzviy bog'liq bo'lishi mumkin. Mazkur jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning asosiy qismini 30-40 yoshgacha bo'lganlar tashkil etib, ularning 50%ni ilgari sudlangan shaxslar tashkil etadi.

Qasddan jinoyat sodir qilgan shaxsning sudlanganligidan keyin yana yangi qasddan jinoyat sodir etishi, uning hulq-atvori buzulishi darajasining yanada chuqurlashganligini ko'rsatadi. Huquqbazar shaxsning ilgari jinoyat sodir etganligi ham muayyan qilmishning kelib chiqishida, ayniqsa jabrlanuvchining qilmishiga javob reaktsiyasini qayratish bilan jinoyat sodir etishiga olib kelishini kuzatish mumkin. Bunday vaziyatlar nikohsiz birga yashagan shaxslarda ko'p kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi "Xotin – qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-sonli qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Xotin – qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to'g'risida"gi qonuni.
4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi.
5. O'roqov J. R. Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirishning muammolari //Journal of new century innovations. 2023. – T. 21. – №.4. – S.44-50.



6. O'roqov J.R. Mahallada huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va o'zaro hamkorlikni mustaxkalash <https://inntechcon.uz/index.php/current/article/view/29>